



MOLIYA-KREDIT RAG'BATLANTIRISH VOSITALARINING IQTISODIY-HUQUQIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Mahmudov Nurali

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0009-0131-8719

nuralimahmudov32@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada davlat, banklar va xalqaro moliya institutlari tomonidan iqtisodiyotning turli sohalarini qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida rag'batlantirish vositalarining huquqiy va iqtisodiy xususiyatlarini o'rganish yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: huquq, iqtisodiyot, rag'batlantirish, real sektor, moliya, kredit, rag'batlantirish vositalari.

ЭКОНОМИКО-ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ И ХАРАКТЕРИСТИКА ФИНАНСОВО- КРЕДИТНОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ

Махмудов Нурали

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. В статье представлены сведения по исследованию правовых и экономических характеристик инструментов стимулирования, используемых государством, банками и международными финансовыми институтами для поддержки различных секторов экономики, привлечения инвестиций и обеспечения устойчивого развития.

Ключевые слова: право, экономика, стимулы, реальный сектор, финансы, кредит, стимулы.

ECONOMIC AND LEGAL ESSENCE AND CHARACTERISTICS OF FINANCIAL AND CREDIT INCENTIVES

Makhmudov Nurali

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. The article presents information on the study of the legal and economic characteristics of incentive instruments used by the state, banks, and international financial institutions to support various sectors of the economy, attract investments, and ensure sustainable development.

Keywords: law, economics, incentives, real sector, finance, credit, incentives.

Kirish.

Iqtisodiyotda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalar iqtisodiyotning turli sohalarida qo'llaniladi va ularning huquqiy asoslari hamda iqtisodiy ta'siri chuqur tahlil qilinishi kerak.

Iqtisodiyotning real sektori subyektlarini moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari bu davlat, banklar va moliyaviy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo'lib, kreditlar (imtiyozli shartlardagi qarz mablag'lari), subsidiyalar va grantlar (qaytarilmaydigan yordamlar), kafolatlash mexanizmlari (kredit risklarini kamaytirish), soliq imtiyozlari (investorlar va korxonalarga soliq yukini yengillashtirish), lizing va ijara shartnomalari (texnika va uskunalarni arzon bahoda taqdim etish) iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish dolzarbligi ko'plab omillarga bog'liq va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovatsion rivojlanish, barqaror ish o'rinlarini yaratish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun juda muhim.

Adabiyotlar sharhi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari iqtisodiyotni faollashtirish, investitsion jarayonlarni kuchaytirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim funksional mexanizm hisoblanadi. Ushbu vositalarning samarali ishlashi ularning iqtisodiy va huquqiy mohiyatini chuqur anglash, ularni kompleks tarzda boshqarish va amaliyotda puxta qo'llashga bog'liq.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari ishlab chiqarish faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, korxona va xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidligini oshirish, ularning investitsion salohiyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Bunda asosiy vositalar sifatida foizsiz yoki imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari, subsidiyalar va grantlar alohida o'rin tutadi. Ushbu mexanizmlar orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi. Masalan, soliq imtiyozlari yoki investitsiya kreditlari orqali xususiy sektorni kengaytirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash imkoniyati yaratiladi.

Huquqiy jihatdan esa, moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari tegishli normativ-huquqiy bazaga tayanadi. Ular davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar, qarorlar va reglamentlar asosida tartibga solinadi.

Birinchi navbatda, moliyaviy-kredit rag'batlantirishning iqtisodiy mohiyati turli mamlakatlar kesimida turlicha ko'rinishda namoyon bo'lgan.

Masalan, amerikalik iqtisodchi Stiglitz (2019) o'z asarida davlat tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilgan mablag'lar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va xususiy sektorni rag'batlantirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchilar Claeys va Darvas (2018) Yevropa Markaziy bankining aktivlar xarid qilish dasturini (APP) tahlil qilarkan, bu siyosat kreditlar hajmini oshirish, inflyatsiyani barqarorlashtirish va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda muhim vosita bo'lganini e'tirof etadi. Shu bilan birga, ular bu choralarning iqtisodiyotga samara berishi uchun yuridik mezonlarning aniq bo'lishi, davlat va moliyaviy institutlar o'rtasidagi vakolatlarning to'g'ri taqsimlanishi lozimligini alohida ta'kidlaydilar.

Yaponiya tajribasida moliyaviy rag'batlantirish choralari pandemiya davrida kuchaytirildi. Hoshi va Kashyap (2020) olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, foizsiz kreditlar, soliqqa oid imtiyozlar va davlat kafolatlari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minladi, balki kichik va o'rta biznesni saqlab qolishda ham muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, olimlar byurokratik jarayonlarning murakkabligi va huquqiy noaniqliklar ushbu mexanizmlarning samaradorligini pasaytirishini ta'kidlashadi.

Xitoyda esa moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari davlat tomonidan yo'naltirilgan kreditlash modeli orqali amalga oshirilmoqda.

Zhang (2021) o'z tadqiqotida davlat banklari orqali sanoat tarmoqlariga berilayotgan maqsadli kreditlar va grantlar Xitoy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qilganini ko'rsatadi. Biroq, bu modelda shaffoflik va raqobatga asoslangan huquqiy tartibotlar yetarlicha rivojlanmaganligi tanqid ostiga olingan.

Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy-kredit rag'batlantirish choralari natijador bo'lishi uchun ularning institutsional va huquqiy asoslari mustahkam bo'lishi kerakligi qayd etilgan.

Ular ayniqsa moliyaviy intizom, hisobdorlik va maqsadli monitoring tizimlarining mavjudligi rag'batlantirish siyosatining uzoq muddatli samaradorligini belgilashini ko'rsatadi.

Rossiyalik iqtisodchi Grjaznova (2018) o'z izlanishlarida moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalarini davlatning iqtisodiy tartibga solish funksiyasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi.

U kreditlar, soliq imtiyozlari, grant va subsidiyalar orqali iqtisodiyotni faollashtirish choralari fiskal va monetar siyosat vositalari bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Grjaznovaning fikricha, ushbu vositalar huquqiy tartibga solinmaguncha iqtisodiyotda barqaror natijalar berishi qiyin.

Qozog'istonlik olim Ibraev (2020) o'z tadqiqotida iqtisodiyotni rag'batlantirishning regional xususiyatlariga urg'u beradi. Uning fikricha, moliyaviy-kredit vositalari faqat markaziy darajada emas, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi vosita sifatida ham samarali ishlashi mumkin.

Ibraevning tahlilida banklar, sug'urta kompaniyalari va mikromoliyaviy tashkilotlarning hamkorligi asosida ishlab chiqilgan kredit siyosatining huquqiy asoslari alohida o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar esa so'nggi yillarda moliyaviy rag'batlantirish vositalarini iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida o'rganib kelmoqda. Xolboyevning tadqiqotida davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari orqali kichik biznes va sanoat tarmoqlarining faolligi oshayotgani ko'rsatib o'tilgan. Xolboyev (2019), ayniqsa, bu vositalarning huquqiy jihatdan ishonchli tartibga solinishi ularning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanini alohida ta'kidlaydi.

Iqtisodiyotning huquqiy tartibga solinishi doirasida Qudratova (2021) tomonidan moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining qonunchilik asoslari o'rganilgan.

U moliyaviy vositalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tizimliliigi, ularning amaliyotga mosligi va monitoring tizimining mavjudligi bo'yicha muhim takliflar bildirgan. Qudratova moliyaviy siyosatda huquqiy barqarorlikni ta'minlash moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishini qayd etgan.

Yakuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlarning moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari borasidagi izlanishlari ushbu vositalarning ko'p qirrali tabiatini yoritib bergan.

Ular iqtisodiy faollikni oshirish, biznesni qo'llab-quvvatlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'lishi bilan birga, o'z-o'zidan samara bermasligi, balki huquqiy-institutsional asoslar bilan to'liq uyg'unlikda bo'lishi kerakligi doimiy ravishda ta'kidlab kelinadi. Demak, vositalarning muvaffaqiyatli qo'llanishi ularning qonunchilik asoslari, moliyaviy institutlarning salohiyati va ularni maqsadli yo'naltirish tizimiga bevosita bog'liq ekani barcha mualliflar tomonidan e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy-kredit vositalari orqali davlat yoki moliyaviy institutlar tomonidan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan mexanizmlardir.

Moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalarining iqtisodiy mazmuni resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyalarni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iborat bo'lsa, huquqiy mazmuni ularning qonuniy asoslari, amalga oshirish tartibi va nazorat mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu vositalarning samaradorligi ularning to'g'ri iqtisodiy-huquqiy jihatdan tartibga solinishi va qat'iy nazoratiga bog'liq (1-jadvalda).

1-jadval

**O'zbekistonda Respublikasida qabul qilingan qonun va O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti farmon va qarorlari (lex.uz, n.d.)**

№	Qonun nomi	Qabul qilingan sana	Qisqacha mazmuni
1	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri)	2019-yil 30-dekabr (2020-yil 1-yanvardan kuchga kirdi)	Soliq imtiyozlari, tadbirkorlik subyektlariga soliq yengilliklari
2	Banklar va bank faoliyati to'g'risida gi Qonun	(2023-yilda yangilangan tahriri qabul qilingan)	Kredit siyosati, bank nazorati va moliyalashtirish mexanizmlari
3	"Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonun	2019-yil 25-dekabr (yangilangan tahriri qabul qilingan)	Investorlarga beriladigan huquqiy kafolatlar va imtiyozlar
4	"Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi Qonun	2019-yil 10-may	Davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish asosida loyihalar qo'llab-quvvatlanadi
5	PF-6019-son Farmon – "Bank tizimini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlar"	2019-yil 15-may	Banklar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish tizimini takomillashtirish
6	PQ-4086-son Qaror – "Tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini kengaytirish"	2019-yil 18-dekabr	Imtiyozli moliyalashtirish, subsidiya va kafolatlar tizimi
7	PF-5866-son Farmon – "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash"	2019-yil 14-oktyabr	Kredit olish shartlarini soddalashtirish, moliyaviy vositalarni kengaytirish
8	PQ-3777-son Qaror – "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish"	2018-yil 14-iyun	Kreditga kafillik va foiz kompensatsiyasi tizimini kuchaytirish
9	PF-6116-son Farmon – "Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish strategiyasi"	2020-yil 9-noyabr	Kredit jarayonlarini raqamlashtirish va ochiqlikni oshirish
10	PQ-4227-son Qaror – "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida kredit ajratish mexanizmlari	2019-yil 7-mart	Oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy rag'batlantirish
11	PQ-4339-son Qaror – "Ayollar va yoshlarga mo'ljallangan imtiyozli kreditlar"	2019-yil 10-may	Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini rag'batlantirish
12	PF-6185-son Farmon – "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi"	2021-yil 11-mart	Kreditlarning manzilli yo'naltirilishi va monitoringi

1-jadval asosida qonun va farmonlar tahlili O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida bir qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi (2020-yildan kuchga kirgan) tadbirkorlik subyektlariga soliq yengilliklari yaratish orqali biznes muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Banklar to'g'risidagi qonun va unga muvofiq PF-6019-sonli farmon, PQ-4086 va PQ-4339 qarorlar orqali bank kredit siyosati, imtiyozli moliyalashtirish va ijtimoiy guruhlar uchun qulay moliyaviy mexanizmlar joriy qilindi.

Investitsiya faoliyati va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunlar investorlar uchun huquqiy kafolatlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamladi. Shu bilan birga, PF-5866, PQ-3777 va PF-6185 farmon va qarorlar tadbirkorlikni rag'batlantirish, kreditga kafillik va monitoring tizimlarini kuchaytirishga qaratilgan.

Yana bir muhim qadam sifatida, PF-6116-sonli farmon asosida raqamli bank xizmatlari joriy etilib, moliyaviy tizimda ochiqlik va samaradorlik oshirilmoqda. Umuman, mazkur huquqiy hujjatlar iqtisodiyotning real sektori va moliya tizimining uzviy rivojlanishiga zamin yaratmoqda (2-jadval).

2-jadval

Rag'batlantirish vositalari

1	Rag'batlantirish vositasi	Iqtisodiy mohiyati	Huquqiy asosi	Afzalliklari	Kamchiliklari
2	Kam foizli bank kreditlari	Korxonalarga arzon mablag' berish, investitsiyalarni jalb qilish	O'zR Markaziy banki qarorlari, "Banklar faoliyati to'g'risida"gi qonun	Foiz stavkalari past, davlat subsidiyasi mavjud	Katta kafilliklar talab qilinishi, kredit uchun uzoq muddatli jarayonlar
3	Davlat kafilliklari	Bank riskini kamaytirish, kredit olishni osonlashtirish	"Kafillik to'g'risida"gi qonun, Vazirlar Mahkamasining qarorlari	Kichik biznes uchun qulaylik, kredit hajmini oshirish	Kafillik berish uchun qat'iy mezonlar, cheklangan mablag'
4	Soliq imtiyozlari	Korxonalarga moliyaviy yengillik yaratish	Soliq kodeksi, "Investitsiyalarni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonun	Daromadni reinvetsiya qilish imkoniyati	Imtiyozlardan nohalol foydalanish holatlari
5	Lizing shartnomalari	Uskuna va texnikani yangilashga yordam	"Lizing to'g'risida"gi qonun, Ijara qonunchiligi	Dastlabki xarajatlarni kamaytirish	Uzoq muddatli majburiyatlar, qo'shimcha xarajatlar
6	Grantlar va subsidiyalar	Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Davlat dasturlari (masalan, "Yoshlar – kelajagimiz")	Qaytarilmas mablag', startaplar uchun foydali	Tanlov jarayoni murakkab, resurslar cheklangan
7	Eksport kreditlari	Mahsulotlarni xorijiy bozorlarga chiqarish	"Eksportni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonun	Valyuta daromadini oshirish	Katta miqdordagi talablar, bojxona to'siqlari

Manba: O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi.

2-jadvalda real sektor subyektlarini moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalari, iqtisodiy mohiyati, huquqiy asosi, afzalliklari, kamchiliklari tahlili amalga oshirilgan.

Iqtisodiyotning real sektorini moliya-kredit vositalari orqali rag'batlantirish asosiy jihatlarini tizimli har bir parametr (kam foizli bank kreditlari, davlat kafilliklari, davlat kafilliklari, soliq imtiyozlari, lizing shartnomalari, grantlar va subsidiyalar, eksport kreditlari) iqtisodiy ta'siri, huquqiy asosi xususiyatlari tahlili qilingan.

Real sektor moliya-kredit vositalari orqali rag'batlantirish berish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mamlakatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun qo'llanadi.

Subsiyalar, soliq imtiyozlari, kreditlar va kafolatlar shartnomalarining asosiy maqsadi mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish va real sektor subyektlari faoliyatiga ilg'or resurs tejankor, energiya tejankor raqobatbardosh zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy etishda shaffof, adolatli, mutanosib ravishda moliya-kredit vositalaridan rag'bat berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy islohotlar bosqichida bo'lib, real sektorni rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va investitsiyalarni jalb qilish asosiy ustuvor yo'nalishlardandir. Ushbu jarayonda moliyaviy-kredit vositalari orqali rag'batlantirish mexanizmlari iqtisodiy o'sishni faollashtiruvchi muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, moliyaviy-kredit rag'batlantirish vositalarining iqtisodiy-huquqiy mohiyati va xususiyatlari quyidagi tavsiyalarni amaliyotga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- davlat yoki banklar mablag'larni eng samarali va strategik ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirganda moliyaviy-kredit vositalari rag'batlantirish uchun imtiyoz berishi lozim;

- soliq imtiyozlari orqali kredit olishni rag'batlantirish uzoq muddatli kredit olgan korxonalar uchun soliq yengilliklari (soliq kreditlari, amortizatsiya imtiyozlari) berishda shaffoflikni oshirish maqsadga muvofiq;

- rivojlangan mamlakatlar (masalan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya) da moliyaviy-kredit vositalari yordamida sanoat, innovatsiyalar, yashil texnologiyalar faol rag'batlantirish tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Kelgusida ushbu moliya-kredit vositalarning adolatli, shaffof va raqamli asosda faol ishlashi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

Claeys G., Darvas Z. (2018) *The future of the European Central Bank's asset purchase programme* // Bruegel Policy Contribution. Issue 13. URL: <https://www.bruegel.org>.

Hoshi T., Kashyap A.K. (2020) *The Japanese Government's Response to the Coronavirus Pandemic* // Asian Economic Policy Review. Vol. 15, No. 2. P. 210–231.

International Monetary Fund. (2023) *Fiscal Monitor: Strengthening the Credibility of Public Finances*. Washington D.C.: IMF.

Qudratova G. (2021) *Moliyaviy huquq normalarini oshirishning loyihalari*. – Toshkent: Yuridik nashriyot. – 176 b.

Stiglitz J.E. (2019) *People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent*. New York: W.W. Norton & Co., – 366 p.

Zhang L. (2021) *China's Economic Recovery and Credit Policy Tools* // Journal of Chinese Economic and Business Studies. Vol. 19, No. 3. P. 245–267.

Грязнова А.Г., Федотова М.А. (2018) *Финансовое регулирование экономики*. М.: Финансы и статистика, 368 с.

Ибраев К. (2020) *Финансовые инструменты устойчивого роста региональной экономики*. Нур-Султан: Экономика. – 294 с.

Холбоев А.С. (2019) *Совершенствование механизма финансирования реального сектора экономики*. Ташкент: Фан. – 220 б.